



2025-yil 11-mart, 49-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official

O'zbekiston — Fransiya:

MAMLAKATLAR TARAQQIYOTIDA ILM-FAN VA TA'LIM — MUHIM KO'PRIK

Yurtimizda ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, jahon talablariga javob bera oladigan darajaga olib chiqish bo'yicha ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Shubhasiz, bu borada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish katta ahamiyat kasb etadi.

Kuni kecha Parijda "Ilm-fan va ta'lim: O'zbekiston — Fransiya ko'prigi" mavzusidagi qo'shma konferensiya o'tkazildi. Anjumanda mamlakatlarning ta'lim sohasidagi mas'ullari, shuningdek, ikki davlatning 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi rahbarlari ishtirok etdi. Tadbirdan asosiy maqsad ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, ayniqsa, ilmiy-texnik va ta'lim sohalarida hamkorlikni mustahkamlashdir.

Anjuman doirasida qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, talabalar almashinuvini kengaytirish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 20 dan ortiq shartnoma imzolandi.

Mamlakatimizdagi islohotlar haqidagi videorolik namoyishidan so'ng tadbirning yalpi majlisi o'tkazildi.

Yalpi majlisdan O'zbekiston va Fransiya oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik shartnomalarini imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirning ikkinchi qismida bir nechta yo'nalish bo'yicha sessiyalar o'tkazildi. Dastlab "O'zbek-fransuz universiteti" mavzusidagi sessiyada O'zbekiston va

Fransiya universitetlari o'rtasida ta'lim va madaniy hamkorlikning strategik istiqbollari muhokama qilindi. "Ilmiy-texnik hamkorlik" mavzusidagi sessiyada innovatsion ta'lim, ijtimoiy-gumanitar fanlar va energetika sohalarida hamkorlik, "Madaniy meros va turizm" mavzusidagi sessiyada esa O'zbekiston va Fransiya moda sanoati, tarixiy merosni asrash va rivojlantirish borasidagi hamkorlik masalalariga e'tibor qaratildi.

Tadbir yakunida "O'zbek modasi: an'analar va ilhom cho'qqilari" nomli milliy liboslar namoyishi tashkil etildi. Ushbu xalqaro konferensiya O'zbekiston va Fransiya o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tadi.

Shu bilan birga, Parijdagi Tadqiqotchilar va talabalar shaharchasida O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etilgan IV "Science NEXT: yosh olimlar networkingi" tadbiri bo'lib o'tdi. Forumda O'zbekiston va Fransiyadan yosh olimlar, startapchilar, xitirochilar hamda ilmiy-innovatsion sohadagi yetakchi mutaxassislar ishtirok etdi.

Tadbirni oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov ochib, mamlakatimizda yosh olimlar va tadqiqotchilarga yaratilgan imkoniyatlar haqida so'z yuritdi.

— O'zbekiston va Fransiya oliy ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan salmoqli tashabbuslarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda, — dedi Qo'ng'iro'tboy Sharipov. — Xususan, 182 talabani qamrab olgan almashinuv dasturi, 36 professor-o'qituvchining tajriba, 108 mutaxassisning malaka oshirishi hamda 10 ta qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Shundan keyin Fransiyaning Parij xalqaro universitet shaharchasidagi Il-de-Frans ijodiy uyi direktori Franchesko Torrini taqdimot o'tkazdi.

Forum doirasida Yoshlar akademiyasi rahbari Akbarxon Sobirxonov "O'zbekistonda yosh olimlar, xitirochilar va innovatorlarga yaratilgan imkoniyatlar" mavzusida taqdimot qilib, bugun yosh olimlarga ajratilgan grantlar, ilmiy loyihalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, ishtirokchilarga O'zbekiston Yoshlar akademiyasi faoliyati haqida videorolik taqdim etildi.

Tadbir yakunida O'zbekiston va Fransiya yosh olimlari o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari imzolandi. Shuningdek, o'zbekistonlik yosh olim-vatandoshlarni Yoshlar akademiyasiga a'zolikka qabul qilish marosimi o'tkazildi.

Jonibek ALIJONOV
tayyorladi.

ODAMLARNI ISHLI QILISH kambag'allikni kamaytirishning eng asosiy jihat

Bugunning gapi



Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz joriy yil 4-mart kuni kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash, investitsiya va eksport ko'rsatkichlari bo'yicha hisobot bilan tanishish jarayonida yil boshidan aholi bandligini ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy qilinishini qayd etdi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan davrda 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda banklar rahbarlari o'rtasida bu borada hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bank filiallarida mahallabay ishlash bo'lumlari tashkil etilib, ularga mahalla bankirlari tayinlandi. Natijada yanvar oyida 239 ming, fevral oyida 480 ming aholi daromadli mehnatga jalb qilindi.

— O'tgan ikki oyda investitsiya va eksport ko'rsatkichlari ham ijobiy bo'ldi. Birgina fevral oyida respublikamizga 3 milliarddan ortiq xorijiy investitsiya jalb etildi, — deydi Bosh vazir o'rinbosari Jamshid Xo'jayev. — Davlatimiz rahbariga har bir hudud, shahar, tuman hamda vazirlik va idoralarning investitsiyalarni jalb etish hamda o'zlashtirilganlik darajasi bo'yicha hisobot taqdim etildi.

Quvonarlisi, bu borada o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 40 foiz o'sishga erishilgan. 14 tadan ortiq shahar ikki oyda 50 milliondan ziyod xorijiy investitsiya jalb etgan. Fevral oyida tadbirkorlar o'z yo'nalishlari bo'yicha investitsiyalar jalb etish bo'yicha Malayziya, Indoneziya, Kuvayt, Xitoy va Gruziya kabi qator davlatlarga xizmat safarlari bilan bo'ldi.

Natijada qiymati 12 milliard dollarlikdan ortiq 128 ta istiqbolli loyiha imzolandi. Shu bilan birga, yurtimizga ham 40 dan ziyod mamlakatning yirik ishbilarmon doiralari vakillari tashrif buyurdi. Ular tomonidan 50 dan ortiq shartnoma imzolandi.

Bundan tashqari, yangi loyihalarni amalga oshirishda har bir tuman, shaharning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, chet eldagi savdo-iqtisodiy maslahatchilar tomonidan juda katta muzokaralar o'tkazilmoqda. Ahamiyatlisi, xorijlik investorlarni, tadbirkorlarni O'zbekistonga olib kelish, har bir hudud jozibadorligini ko'rsatish uchun yuzdan ortiq taqdimot qilindi.

Shuningdek, birinchi chorak yakuni bilan 8 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan reja qilingan. Bunda banklar tomonidan xorijiy kredit liniyalarni berishni jadallashtirish, xalqaro moliyaviy institutlarni faqatgina davlat kafolati bilan emas, balki

so'm sarflandi. Yil boshidan kichik va o'rta biznesga jami 14 trillion so'm kredit yo'naltirildi. Jumladan, tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 trillion so'm ajratildi. Odamlarga daromad topish imkoniyatlari, tayyor biznes loyihalar tanishtirilib, ularni amalga oshirish yo'llari o'rgatilmoqda. Ishli bo'lganlar Soliq qo'mitasida taqdislanmoqda.

Ayni paytda oldimizda turgan muhim vazifalardan biri tomorqa va ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlaridan olingan daromadlarni oshirish, eksportbop ekinlar ekish maqsadida yangi tizim asosida ish boshlandi. Shu maqsadda 9 mingdan ortiq mahallaga 1921 ta yetakchi tadbirkor biriktirilmoqda. Maqsad — yaxshi urug'lik va ko'chatlarni mahsulotni xarid qilish bozorini kafolatlash.

Shu bilan birga, bahor mavsumida tomorqa va ijara yerlarda to'liq ekin ekish, buni online-mahalla.uz platformasi orqali kuzatib borish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

SIYOSAT

YANGI O'ZBEKISTON



Sharh

TADBIRKOR HAYAJOINI, TAKSICHIGA TASKIN VA KENG GASTRONOMIK KO'CHALAR

PREZIDENT QARORIDA XIZMAT KO'RSATISHGA OID KO'PLAB VAZIFALAR BELGILAB BERILDI

Boshlanishi 1-betda

Xo'sh, nega dunyo miqyosida xizmat ko'rsatish sohasiga alohida urg'u berilmoqda? Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Birinchidan, ushbu sektorning taraqqiy etishi hech qanday ekologik muammo keltirib chiqarmaydi, aksincha, atrof-muhitning ko'kalamzorlashtirilishiga hissa qo'shadi. Ikkinchidan, soha transport, aloqa, savdo-sotiq, restoran va mehmonxona xizmatlari kuchaytirilishi, mamlakatda bunyodkorlik ishlari bajarilishi, shahar infratuzilmasi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari, kompyuter xizmatlari inson aqliy mehnatiga tayanganli sohadagi kadrlar qiymatini oshiryapti. Shuningdek, sohaga qaratilgan e'tibor tez sur'atda natijasini ko'rsatishi ham uning jozibadorligini o'tirtirmoqda. So'zimizni birgina fakt bilan isbotlash mumkin: 2018-yilda mamlakatimizda 170 trillion so'mlik xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2024-yil yakunlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 800 trillion so'mga yetgan, ya'ni besh barobar ko'paygan. Yuqoridagi qaror ijrosi tufayli 2025-yilda soha yana bir pog'ona yuksalishi kutilmoqda.

Bunga, birinchi navbatda, sohadagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularga turli imtiyoz va faoliyatini kengaytirishi uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali erishiladi. Shunday imtiyozlardan biri hududlarda xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirish masalalariga bo'yicha o'tkazilgan videoselektorda xushxabar sifatida e'lon qilingan, davlatimiz rahbari 2022-yildan 2025-yilgacha ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz etib belgilangani, bu yil ushbu imtiyoz muddati yana cho'zilib, 2028-yilgacha amal qilishini aytdi.

Xususan, savdo-servis sohasida muvaf-faqiyatli ishlayotgan tadbirkorlardan biri Zafar Hoshimovning ushbu yangilikni katta hayajon bilan ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali ulashgani ham bu imtiyozning ishbilarmonlar uchun qanchalik foydali ekanini bildiradi. Qator tadbirkorlarning 12 foizli ijtimoiy soliq stavkasining 1 foiz etib belgilangani daromadini karrasiga ko'paytirishini, albatta, ortgan mablag' ischilarning oylik maoshida aks etishini aytgani Prezidentimizning qo'lloviga munosib javob bo'ldi.

Qarorga ko'ra, imtiyoz tadbirkorlarning 30 yoshgacha bo'lgan xodimlari oylik maoshiga nisbat qilingan holda amal qilishi mexanizmining ahamiyatini yanada oshirdi. Albatta, sohani rivojlantirishda, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlarning ahamiyati. Ammo ishbilarmonlarga o'z salohiyatini to'laqonli namoyish etishi,

tarmog'ini kengaytirishi uchun davlat kerakli shart-sharoit yaratib beradi. Xususan, qator davlat xizmatlarining xususiy sektorga o'tkazilayotgani tadbirkorlarga bildirilayotgan ishonchning yaqqol isbotidir.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish hamda tadbirkorlik subyektlarini kengaytirish uchun 67 trillion so'mdan ortiq kredit yo'naltirilayotgani hamda buning uchun kerakli shart-sharoit va imkoniyat taqdim etilayotgani tadbirkorlarni tarmog'da yangiliklarni dadil sinab ko'rishga undaydi.

Huquqiy hujjatning o'ziga xos jihatlaridan yana biri to'g'ridan to'g'ri, ijobiy ma'noda, ko'plab aholi vakillari hayotiga ta'sir o'tkazadigan yangi mexanizmlar mavjudligida. Shunday mexanizmlardan biri yengil avtotransport vositalarida yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyati bilan o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lganidir.

Mamlakatimizda ulovi bor odamning aksariyati aholining uzog'ini yaqin qilish, ya'ni taksichilik bilan shug'ullanadi. Ayrimlar uchun esa bu yumush kundalik tirikchilik manbaidir. Ko'p hollarda hech ishi yurishmaganlar ijaraga yoki yiqqan-terganiga bir oz qarz ko'tarib qo'shadi-da, mashina olib taksichilik bilan shug'ullanadi. Ammo litsenziya narxi yuqoriligi uchun ba'zilar bu ishni yashirincha qilishga majbur bo'lardi. Qarorning yuqoridagi bandiga ko'ra, bunday yurtodshlarimiz kam sarf-xarajat qilib, rasmiy ravishda taksichilik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin.

Ammo ayrim yurtodshlarimiz bu bandning asl mazmunini hali tushunib ulgurmagani. Yaqinda bir taksichi "Yangi qaror chiqibdi. Unga ko'ra, biz litsenziya uchun pul to'lashdan tashqari o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tib, unga alohida pul to'lashimizga to'g'ri kelarkan. Hammaga imtiyoz, imkoniyat berayotgan davlat negadir bizga faqat majburiyat yuklayapti-da", deya nolib qoldi.

Unga yangi qarorga muvofiq yo'nalishsiz taksi faoliyati bilan litsenziya varaqasi uchun davlat boji yiliga bazaviy hisoblash miqdorida (375 ming so'm) etib belgilangani, o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida esa "Soliq" mobil ilovasida bepul ro'yxatdan o'tishi mumkinligini aytdim. Haydovchi qaror mazmunini noto'g'ri tushunganini, tez litsenziya olishini aytdi. Qo'rqa-pisa yurish rosa joniga tekkan ekan. Bu amaliyot sohadagi yashirin iqtisodiyotning yo'qolishiga, ish bilan ta'minlanganlar soni ortishiga xizmat qiladi.

E'tibor bersangiz, inson diqqatga sazovor joylarda aylansa, qattiq toliqadi, ammo yangilikka qiziqish, yangi taassurotlar tufayli

buni sira sezmaydi. Aslida, hordiq chiqaradigan manzillarimiz restoran, kafe, savdo markazlari, sayilgoh, kinoteatr kabi ko'ngilochar maskanlar bo'ladi. Bunday manzillar sayohatga alohida mazmun bag'ishlab, vaqtimiz ko'ngilli o'tishini ta'minlaydi. Ayni shu manzillarning barchasi bir ko'chada jam bo'lishi esa ortiqcha ovorgarchiliklardan xalos etadi.

Shu bois, sayyohlik salohiyati dunyoga mashhur mamlakatlarda ana shunday o'ziga xos ko'chalar mavjud. Masalan, Fransiyaning Eyfel minorasi qanchalik mashhur bo'lsa, u yerdagi besh yulduzli restoran, savdo markazlari joylashgan "Champs-Élysées" ko'chasining ham dovrug'i oshib bormoqda. Yoki bo'lmasa, Nyu-Yorkdagi "Fifth Avenue", Bangkokdagi "Khao San Road", Milandagi "Via Monte Napoleone" kabi ko'chalar har doim sayyohlar bilan gavjum. Ushbu ko'chalarda tunu kun ishlaydigan besh yulduzli mehmonxonalar, mahalliy restoranlar, mashhur brendlarning savdo markazlari, turli ko'ngilochar maskanlar mavjud.

Mazkur qarorga ko'ra, markaziy shaharlarimizda shu yilning o'zida ayni shunday 154 ta turizm va gastronomik ko'cha tashkil etilishi mo'ljallangan. Albatta, ilg'or mamlakatlar sinovidan o'tgan bunday bunyodkorlik ishlari shaharlarimizning chiroyiga chiroyi, ko'rkiga ko'rk qo'shadi. Xorijlik sayyohlarni karrasiga oshiradi.

Yurtimizdagi tarixiy obidalar, o'ziga xos ekomuhit, tabiat manzaralari sayyohlarga mayoq bo'lsa, turizm va gastronomik ko'chalar ulan muntazam O'zbekistonga kelib turishi uchun o'ziga tortib turuvchi ohanrabo vazifasini bajaradi. Chunki Fransiya Eyfel minorasini ko'rgan borgan odam yana bir bor ayni shu manzara uchun intilmaydi. U yerdagi muhit sayyohni qayta kelishga chorlaydi. Bunday muhit esa aynan yuqoridagi kabi shahar ko'chalarida mavjud keladi.

2025-yilda birgina Toshkent shahrida 26 ta turizm va gastronomik ko'cha barpo etilishi ko'zda tutilmoqda. Turizm va gastronomik ko'chalar faqatgina restoran va savdo markazlari joylashgani va tunu kun faoliyat yuritgani uchun ham bunday nomlanmaydi. Ular boshqa ko'chalardan jozibadorligi bilan ajralib turishi, shaharning eng chiroyli, soya-salgini, yashillikka burkangan, piyodalar uchun qulay infratuzilmaga ega manzillari bo'lishi ko'zda tutilgan.

Bunday manzillar, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun tashkil etilayotgan bo'lsa-da, eng avvalo, mahalliy aholi kayfiyatini ko'taradigan, madaniy xordiq chiqarishga ko'maklashadigan, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, bayram shodiyonalari o'tkaziladigan go'shaga aylanishi hisobga olinmoqda.

Shu bois, turizm va gastronomik ko'chaga aylantirilayotgan manzillarda piyodalar va velosiped yo'llari kengaytirilib, qayta ta'mirlanyapti. Ko'chalarga yoritqichlar o'rnatilib, ko'kalamzorlashtirish ishlari bajarilmoqda. Shu ko'chada joylashgan tadbirkorlik subyektlari: restoran, savdo markazlari zamonaviy qiyofaga kiritilmoqda.

Ushbu islohotlardan birinchi o'rinda o'sha yerda yashaydigan mahalliy aholi mamnun. Sababi bunyodkorlik ishlari tufayli mahallasi obodonlashtirilishi bilan birga ishsizlar ishli bo'ladi. Xususan, birgina poytaxtimizdagi turizm va gastronomik ko'chalarda mingta savdo va xizmat ko'rsatish obyekti ishga tushirilib, 5000 kishining bandligi ta'minlanishi rejalashtirilmoqda.

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMINI TA'MINLASH — AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISHNING GAROVI



Erkin RUSTAMOV,
Zangiota tumani hokimi

Boshlanishi 1-betda

birinchi, topshiriqlar ijrosi va murojaatlar o'rganib chiqilishini amalda shaxsan nazorat qilish, topshiriqni o'rinbosarga shunchaki yo'naltirmay, mavjud masalani o'rgangan holda uning optimal yechimlari bilan yetkazish;

ikkinchi, topshiriqlar ijrosini nazorat qilishning mutlaqo yangicha tizimi, ya'ni **“texnologik zanjir”** asosida huquqiy jarayonlarni har bir harakat bo'yicha soatbay tartibga solish;

uchinchi, mahallani rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda mahalladagi real holatni **“mahalla yettiligi”** bilan birgalikda tanqidiy tahlil qilish va foydalanilmagan imkoniyatlarga e'tibor qaratish;

to'rtinchi, topshiriqlarning aniq ijro mexanizmlari, moliyaviy manbalari, muddatlari va mas'ullari belgilanishini ta'minlash orqali samaradorlikni oshirish;

beshinchi, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning mohiyatini mas'ullarga hamda keng jamoatchilikka tushuntirib borish.

Prezidentimiz **xalqimizni rozi qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish barcha rahbarlarning ustuvor vazifasi** bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Shundan kelib chiqib, lavozimidan qat'i nazar, **har bir rahbar qog'oz bilan emas, balki yuzaga kelgan muammo yoki vazifa bilan ishlashi**, har bir rivojlantirish dasturini joyiga chiqqan holda o'rganishi, aholi va tadbirkorlik subyektlarining fikrlarini tinglashi hamda mavjud resurs va imkoniyatlarni tahlil qilishi lozim.

Mazkur tizim bo'yicha ish yuritish uslubini to'g'riligi Zangiota tumanini rivojlantirish va mahallalar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqishimiz jarayonida **yana bir bor tasdig'ini topdi**.

Bunda mahallalarda aholi va tadbirkorlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda aytilgan muammolar hamda joydagi ishlarning real holati inobatga olindi.

Bunday ishlash uslubini, avvalo, ishlab chiqilayotgan hujjatlarning sifatini va kelgusida ularni amalga oshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi hamda **tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi farovonligi yaxshilanishiga xizmat qiladi**.

Eng muhimi, Prezidentimiz farmon, qaror yoki biror dasturni tasdiqlashdan oldin doim **hokimliklar fikri va takliflarini so'raydi**. Shaxsan yig'ilish o'tkazib, **ijroni tashkil qilish mexanizmlarini tushuntiradi**. Shuningdek, hujjat ijrosini ta'minlashda muhim bo'lgan moliyaviy manbalarni aniq belgilab beradi.

Kadrlar saviyasi — topshiriqlar ijrosi natijadorligi va aholi farovonligi garovi

Ijro intizomini mustahkamlashda hokimlikdagi har bir xodimning mas'uliyatini oshirish, qat'iy tartib-intizom o'rnatish, kasbiy g'urur, mehnatsevarlik va tashabbuskorlik hissinu uyg'otish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli hokimlikda mas'ul ijrochilar tomonidan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning sifatli bajarilishini **nazorat qilish bo'yicha quyidagi mezonlar belgilab olingan**:

birinchi — **aniqlik**, ya'ni har bir vazifani muvaffaqiyatli va eng maqbul yo'l bilan ijro qilish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilangani;

ikkinchi — **tezkorlik**, ya'ni belgilangan muddatni kutmay, topshiriqni tezkorlik bilan bajarganlik;

uchinchi — **haqqoniylik**, ya'ni topshiriq ijrosi bo'yicha tayyorlangan ma'lumotlarning amalda bajarilgan ishlar bilan o'zaro muvofiqligi;

to'rtinchi — **to'liqlik**, ya'ni topshiriq ijrosini ta'minlash natijasida ko'zlangan maqsadga to'liq erishilganlik;

beshinchi — **mas'uliyat**, ya'ni yuklatilgan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash borasida mas'ul ijrochilar tomonidan o'z vakolati doirasida choralar ko'rilgani.

Shuningdek, hokimlikda ijrochi xodimlarning **shaxsiy mas'uliyati va tashabbuskorligini oshirish**, yuklatilgan vazifani o'z vaqtida va sifatli bajargan xodimlarni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Ushbu tizim orqali **ijrochi xodimlar rag'batlantirilmoqda**.

Tumandagi **davlat tashkilotlari xodimlari** hamda **“mahalla yettiligi”**ning bilim va malakasini muntazam oshirib borish maqsadida qabul qilingan **farmon va qarorlar hamda yig'ilish bayonlarida belgilab berilgan vazifalar** ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan **iqtsodiy o'quvlar** tashkil qilinmoqda.

Murojaatlar — hokimlik nazoratida

Tuman hokimligida tadbirkorlar va fuqarolar murojaatlari muntazam qabul qilinib, toifalarga ajratilgan holda tegishli ijrochilarga tezkor yetkaziladi. Hokimlikda murojaatlar ijrosi bo'yicha mas'ul xodim tomonidan **har bir murojaat kelib tushganidan yechimini topishigacha bo'lgan jarayonni nazorat qilish tizimi joriy etilgan**.

Hokim, sektor rahbarlari va hokim o'rinbosarlari mahallaga chiqqan holda qabullar tashkil qilishi va mutasaddilar bilan birga muammolarni joyida hal etishi tizimi yo'lga qo'yilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolar yuborayotgan murojaatlar, jamoatchilik tomonidan muhokama etilayotgan munozarali masalalar tuman hokimligida tezkorlik bilan ko'rib chiqiladi.

Buning uchun hokimlik axborot xizmati ijtimoiy tarmoqlarni muntazam kuzatib boradi va tumanga tegishli ma'lumot paydo bo'lishi bilan darhol muammoni hal qilish yoki tegishli javob tayyorlash uchun ijrochiga yetkazadi. Joriy qilingan **ushbu tizim bo'yicha har bir murojaat shaxsan hokimning nazoratida**.

Samarali ijroning natijasi — iqtisodiy barqarorlik

Iqtisodiy barqarorlik, aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligi oshirish, mehnat migratsiyasi va kambag'allikni qisqartirishda **tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega**.

Bu borada Prezidentimiz ta'kidlaganidek, **“Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish — eng muhim vazifadir”**.

Tumanimizda bugun **4622 ta** yuridik shaxs maqomiga ega tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Bu borada yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanilgan holda **2024-yilning o'zida 782 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi**.

Davlatimiz rahbari 2024-yil 9-oktabrda Toshkent shahrining bosh rejasi loyihasi taqdimoti bilan tanishish paytida



Zangiota tumanini poytaxt bilan yaxlit aglomeratsiya asosida rivojlantirish bo'yicha topshiriq berdi.

Ushbu topshiriqni tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilab olgan rejalimizni qayta ko'rib chiqib, **marrani yanada baland olishimiz zarur** deb tushundik.

Tumanimizda **sanoat** mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni **904 ta**.

2024-yilda **138 ta** yangi sanoat korxonasi ro'yxatdan o'tdi. Yirik korxonalar soni **9 ta** (2023-yilda **6 ta**), xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar **58 ta** (2023-yilda **54 ta**) yetdi.

Natijada **aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari** ishlab chiqarish hajmi bir yilda



Joriy yil 7-fevral kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda Prezidentimiz xizmatlar sohasini **rivojlantirish** bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Bugun tumanimizda xizmatlar sohasida **2882 ta** tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Ular 2024-yilda **4226 milliard** so'mlik xizmat ko'rsatgan (*o'sish — 16 foiz*).

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasining ulushini ko'paytirish va bu jahhda aholi bandligini ta'minlash asosiy vazifalarimizdan. Shu maqsadda 2024-yilda tumanimizda qator **savdo majmualari, mehmonxonalar, xususiy klinikalar, maktab va bog'chalar** barpo etildi.

Misol uchun, **Nurafshon** mahallasida **“Alhfa-plaza trade”** MCHJ 12 qavatli bino barpo etib, **600 o'rinli** savdo do'konlari, **200 o'rinli** mehmonxona va restoran faoliyatini boshladi. **Eshonguzar** mahallasida **“Expekted Homes”** MCHJ tomonidan 5 qavatli binoda **400 o'rinli** savdo do'konlari, bolalar o'yinchohi hamda 7 qavatli avtoturargoh qurildi.

Bu kabi yirik savdo komplekslari **Istiqlolning 5 yilligi** va **Iqbol** mahallalarida ham barpo etildi. Ular joriy yilda faoliyat yuritib boshlaydi.

Ijtimoiy sohada xizmat ko'rsatish ham alohida e'tiborda. Bog'zor mahallasida **360 o'rinli** xususiy maktab foydalanishga topshirildi. Shuningdek, tumanda jami **550 o'ringa** ega bo'lgan **3 ta** xususiy va **10 ta** oilaviy bog'cha tashkil qilindi hamda **175 qatnovga** ega bo'lgan **3 ta xususiy klinika faoliyat yuritib boshladi**. Joriy yilda O'rta ovul mahallasida **500 o'rinli** zamonaviy dam olish maskani barpo etildi.

Qurilish sohasi Zangiota tumani iqtisodiyotining asosiy drayver yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'tgan yili tumanda **1,5 trillion** so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi. Bu o'rinda ko'p qavatli uy-joylar qurilishi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Misol uchun, **Eshonguzar** mahallasida jami **2600 ta** xonadonli **19 ta** ko'p qavatli uy-joy qurilishi loyihalashtirilib, bugun **1912 xonadonli 11 ta** ko'p qavatli uy foydalanishga topshirildi. Ushbu uy-joylarning birinchi qavatida bolajonlar uchun **xususiy bog'cha va aholiga xizmat ko'rsatish shoxobchalari ochildi**. 2025-yilda **268 xonadonli 6 ta** uy foydalanishga topshiriladi.

Bundan tashqari, **Navqiron** mahallasida jami **1502 xonadonli 21 ta** ko'p qavatli uy-joy qurilishi boshlangan. Shu kunga qadar **15 ta** uy qurilib foydalanishga topshirildi. Natijada **1089 ta** oila uy-joyli bo'ldi. 2025-yilda esa **413 xonadonli 6 ta** uy egalariga topshiriladi.

Ushbu majmuada aholi ehtiyoji uchun zarur **xizmat ko'rsatish obyektlari faoliyati yo'lga qo'yildi**. Odamlar dam olishi uchun sharoit yaratildi. Turli sport maydonchalari barpo etildi. Zamonaviy bog'chalar qad rostlamoqda.

Bu kabi uy-joy massivlari haqida yana qator misollar keltirish mumkin. Xususan, **Bog'zor** mahallasida jami **1215 xonadonli 19 ta**, **Nayman** mahallasida **5500 xonadonli 89 ta**, **Ahmad Yassaviy** mahallasida **650 xonadonli 11 ta** ko'p qavatli uy-joy qurish

bo'yicha loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, qurilish ishlari boshlandi.

Albatta, ushbu massivlarda aholiga qulaylik yaratish uchun xizmat ko'rsatish obyektlari, dam olish maskanlari, sport maydonchalari, bog'cha va maktablar ham barpo etiladi.

Tumanga **investitsiya jalb qilish bo'yicha marrani baland olganmiz**. O'tgan yili aprelda Xitoyga safarimiz davomida kelishuvlarga erishdik. 2024-yilda **104,3 million** dollar miqdoridagi xorijiy investitsiya o'zlashtirildi (2023-yilga nisbatan **3 barobar ko'p**). Jumladan,



Xitoydan 59,9 million dollar, Turkiyadan 22,3 million dollar, Rossiyadan 10 million dollar, boshqa manbalar hisobidan **12,1 million dollar** jalb qilindi.

Misol uchun, **“Expekted Homes”** MCHJ turar joy binolari va savdo majmualari qurish loyihasiga **Xitoydan 19,9 million dollar**, **“Quyosh nuri barchaga”** MCHJ savdo kompleksi tashkil qilish loyihasiga **Turkiyadan 4,6 million AQSH dollari**, **“Foamline Vostok”** MCHJ porolon ishlab chiqarishni kengaytirish loyihasiga **Rossiyadan 5 million dollar** qiymatida investitsiya yo'naltirildi.

2024-yilda **22 ta** yangi korxona **eksportga jalb** qilinib, **eksport** qiymati **89 million AQSH dollari**ni tashkil qildi (2023-yilga nisbatan **1,5 barobar ko'p**). Eksportning asosiy qismi **Qozog'iston (20,2 million dollar)**, **Turkiya (16,5 million dollar)**, **Rossiya (16,4 million dollar)**, **Xitoy (13,1 million dollar)** hissasiga to'g'ri keldi.

Misol uchun, **“Techno cable group”** MCHJ **11,9 million** dollarlik kabel, **“Foamline Vostok”** MCHJ **10,5 million** dollarlik porolon eksport qildi.

Kambag'allikdan farovonlik sari

Aholi farovon yashashi va kambag'allikni qisqartirish uchun **odamlarni daromad keltiruvchi ish bilan band qilish — muhim vazifa**. Bu jarayonda tadbirkorlarning o'rni katta.

Hozir barcha imkoniyat yaratilgan. Faqat vatanparvarlik, fidoyilik va temir intizom bilan ishlasak, Zangiota tumanini **ishsizlikdan va kambag'allikdan xoli** hududga aylantira olamiz.

Qayd etilganidek, tumanimizda o'tgan yilning o'zida yuridik shaxs maqomiga ega **782 ta** yangi tadbirkorlik subyekti tashkil

qilindi. Bundan tashqari, **1417 ta yangi yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini boshladi** va bugun tumanda ular soni **6 mingga** oshdi.

2025-yilda **35 ming** kishining bandligini ta'minlashni reja qilib olganmiz. Bu reja mahalla va sektor kesimida taqsimlanib, xalq deputatlari tuman kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrda qarori bilan tasdiqlangan **“Kambag'allikdan farovonlik sari”** dasturida **“Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va**



mas'uliyat”, ya'ni bandlik va yuqori daromad topish, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish, tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish, yashash sharoitini yaxshilash, davlat organlari xodimlari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish tamoyillari belgilandi.

Dasturga asosan, hududimizda 2025-yilda **1250 ta** oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilib, kambag'allik darajasi **3,8 foizga** tushirildi.

Tumanimiz aholisining ellik foizdan ortig'i yoshlardan iborat. Ular har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun barcha sharoitni yaratib berish bizning asosiy vazifamiz. Shu bois, maktablarda o'quvchilar bekam-ko'st ta'lim olishi uchun bor imkoniyatlarni ishga solib, 2024-yilda **6 ta** maktabga yangi zamonaviy kompyuter jamlanmalari olib berildi. **7 ta** maktab musiqaga asboblari, **10 ta** maktab badiiy adabiyotlar, **30 ta** maktab sport inventarlari bilan ta'minlandi. Viloyat hokimligi tashabbusi bilan o'tkazilgan aksiya doirasida ota-onalar maktablarga **20 mingga ziyod kitob** hadya qildi.

Tumanimiz poytaxt bilan chegaradosh. Shu bois, iqtisodiy o'sish bilan birga aholi soni ham oshib bormoqda. Aholi ehtiyoji va tumanni rivojlantirish yo'nalishlarini hisobga olgan holda **yo'l infratuzilmasini yaxshilash va jamoat transportidan foydalanishni kengaytirish** hamda tuman iqtisodiyotining yana bir drayveri bo'lgan **logistika markazlari va saqlash xizmatlari faoliyatini yanada faollashtirish** bo'yicha o'zimizga qo'shimcha rejalarni belgilab olganmiz.

Biz — hokimlik jamoasi ijro etuvchi organ sifatida topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi muhimligini his etgan holda samarali ijro intizomini joriy qilish borasida muntazam ishlaymiz. Buning uchun barcha sharoit va imkoniyat yaratilgan.



4

2025-yil 11-mart, 49-son

JARAYON

YANGI O'ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_off



Obod xonadon

Aslida, bunga ancha bo'lgandi. O'shanda sovuq ta'sirimi yoki boshqa sababmi Oybek akingning chap qo'lida og'riq paydo bo'ldi. Ancha vaqtgacha davo izlab yurdi. Shu paytlari negadir shifokorga bormay, tabiiy gilyohlardan shifo topishni istadi. Ayrim manbalarni varaqlashga tushdi. Izlandi. Malakali kishilarning maslahatiga quloq tutdi. O'zicha qilmagan amali qolmadi. Lekin qilgan muolajalari dardiga shifo bo'lmadi. Shunga qaramay, chora qidirishdan sira chekinmadi.



4 SOTIX ISSIQXONADAN 00 MILLION SO'M

DAROMAD

YOXUD SHAHRISABZDA QULUPNAY DARAXTI PARVARISHLANMOQDA

Kimdir papaya daraxti mevasi uning dardiga yaxshi shifo bo'lishini aytib qoldi. Oybek aka tez ushbu daraxtni izlashga tushdi. Lekin qovun daraxti ham deb ataladigan bu noyob mevali daraxt ko'chatini topishning o'zi bo'lmadi. Citrus mevali nihollar o'sha paytlari bu atrofda ekilmas, shu sabab xorijdan olib kelinardi. Oradan ko'p o'tmay, aynan qovun daraxtining mevasini topishga erishdi.

yetishtiryapman. Bundan tashqari, qiziquvchilar kelib so'rab turadi. Doim maslahatlarni berib boraman, — deydi Oybek Mavlonov. — Bilsangiz, papaya inson salomatligi uchun juda foydali. Men ham aynan sog'lig'imga kerakligi uchun izlaganman. Mevasi katta, qovundek bo'ladi. Bir kilogrammi bozorda 250 ming so'm atrofida turadi. Donasi olti kilo tosh bosadi. Bir tupidan 50-60



Atigi ikki sotixli issiqxonadan olinayotgan daromadni chamalab ko'rgan kishi bog'bonga tasanno aytishi shubhasiz. Bu yerda ba'zilar meva bergan, ba'zilar endi gulga kirayotgan nihollarning nomini birma-bir sanaymiz: floxua, guava, Xitoy mandarin, Eron apelsini, qandli olma, Tiaxara mandarin, Xitoy medovkasi... Ajablanarlisi, Oybek aka shularning barchasini iqlim sharoitimizga moslashtira olgan.

Ayni paytda Oybek Mavlonov ushbu daraxtlar ko'chatini yetishtirish bilan ham shug'ullana boshladi. Qimmat turadigan mazkur nihollarni ko'paytirish oson kechmayotgani ayon. To'rt sotix tomorqasidan bir yilda 400 million so'mdan ziyod mablag' ishlab topmoqda.

Turmush o'rtog'i, ikki o'g'li, kelini doim unga yordamchi. Hammasi oila byudjetini boyitish uchun mehnat qilmoqda. Oliyohda o'qiyotgan kelin va qizning to'lov-shartnoma summasi tomorqadan keladigan daromaddan qoplanadi.

— Hozir Oybek akingning tajribasini boshqa xonadonlarda ham joriy etish borasida ishlayapmiz, — deydi Hojmaydon mahallasidagi hokim yordamchisi Eldor Xudoyorov. — Unga qo'shni to'rtta oila boshliqlari bilan gaplashib, issiqxona qurishni kelishib oldik. Avvalroq ayrimlar banan daraxti ekkandi. Ammo qishda yaxshi asray olmagani bois, nihollar nobud bo'lgan. Endi Oybek aka o'zi bosh bo'lib, mustazam maslahat va tavsiyalarini berib boradi. Maqsadimiz obod xonadonlarni ko'paytirishdan iborat. Bundan tashqari, oilalar daromadli bo'lib, turmush yanada yaxshi bo'lishiga imkoniyat yaratishni niyat qilganmiz.

Oybek Mavlonov bu ishlar bilan to'xtab qolmoqchi emas. O'tgan yili tanishlari orqali Janubiy Koreyadan avatar navli uzum qalamchasini olib keltirgan. Aytishicha, bir dona qalamchani 30 dollar atrofida sotib olgan. O'ziga xos noyob navli bu uzumni ayni paytda Shahrisabz tumanida ko'paytirish ishlarini boshlab yuborgan.

Bundan tashqari, izlanuvchan bog'bon yaqinda Kavkaz tomonlarda o'sadigan qulupnay daraxti niholini ham keltiribdi. Hozir ushbu daraxt ko'chati parvarishlanmoqda. Agar iqlimimizga to'liq moslashtirilsa, keyinchalik buni ham ko'paytirish ustida ishlaydi. Bog'bonning fikricha, uning mevasi qulupnay shakliga o'xshash. Shu sabab qulupnay daraxti deb atalar ekan.

Umuman olganda, Oybek Mavlonov tajribasi Shahrisabz tumanida ommalashtirilmoqda. Buning uchun esa izlanishlardan to'xtamaydigan bog'bon beminnat yordamini ayamayapti.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

E'TIBORDAN CHETDA QOLMASLIK HARAKATIDA

Yurt obodligi, el farovonligi yildan yil yaxshi bo'lib boryapti. Chin ma'noda o'tgan yil ham obodonlashtirish va xalq turmush darajasini yuksaltirish yili bo'ldi, desak mubolag'a emas.

Masalan, Surxon vohasining eng chekka qishloq va mahallalaridagi har bitta muammo e'tibordan chetda qolmadi. Amalga oshirilgan xayrli ishlar bu yil ham davom etmoqda. Xususan, Sherobod tumanidagi Pashxurt mahallasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, aholini kasb-hunarga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratilgan. “Mahalla yetiligi” qishloqdagi 634 ta xonadondagi yosh boladan keksagacha hamma-hammani yaxshi taniydi.

Yil boshidan uyma-uy yurish orqali xatlov o'tkazilib, 76 nafar ishsiz borligi aniqlandi.

Pashxurt mahallasiga biriktirilgan vakillar “Istak boru, iloj yo'q”, deb katta ish boshlashga mablag' topolmay yurgan mahalladoshlarining soni qanchaligini ham aniq biladi, desak mubolag'a bo'lmas.

O'rta tegirmon ko'chasida yashovchi Abbos Rasulov ancha vaqtdan buyon ishsiz edi. Hokim yordamchisining o'rganishi hamda Abbos Rasulovning qiziqishiga qarab 10 million so'm kredit asosida unga sartaorshxona asbob-anjomlari olib berildi.

— Avvallari har yili bahordan kuzgacha xorijda ishlab kelardim. Bu yil esa hokim yordamchisiga o'z rejalarimni aytgandim, qo'llab-quvvatladi. Endi ishli bo'ldim, — deydi Abbos Rasulov.

Sherobod tumanining aksar mahallalari ahli dehqonchilik, bog'dorchilikni san'at darajasiga ko'targan. Biroq oqar suv taqchilligi har doim tumanning omilkor dehqon va bog'bonlariga katta muammolar tug'diradi.

Xususan, Pashxurt mahallasi ham ushbu umumiy muammodan xoli emas. Hovlisidagi olmozori va anorzori bilan tuman bozorlari to'kinligiga xizmat qilayotgan Davlatnazar Rayimqulov ham artezian quduq qazdirish harakatiga tushib qoldi. Biroq bu oson kechmasligini bilardi. Nima qilish kerak? Darhol hokim yordamchisi ko'makka oshiqdi. Sanoqli kunlar ichida Davlatnazar Rayimqulov 15 million so'm bank kreditiga ega bo'ldi.

— Mahallada suv muammosi bor. Qish seryog'in kelsa, bog' hosili yaxshi bo'ladi. Qurg'oqchil mahallalar esa yaxshi hosilni kutishdan foyda yo'q, — deydi Davlatnazar Rayimqulov. — Davlatning ko'magi bilan imtiyozli kredit olib, artezian quduq qazdirdim. Shunday ko'mak bo'lsa, muammolarimiz tez yechim topadi.

Pashxurt qishlog'ining Uchyog'och mahallasida yashovchi Nargiza Tursoatova esini tanibdiki, chevarlikka qiziqadi. U o'z faoliyatini kengaytirishni, mahalladagi chevar qiz-juvonlarni ishga jalb qilishni ko'ngliga tukkandi. Orzusi to'yogba chiqib, imtiyozli kredit asosida 2 dona tikuv mashinasi sotib oldi.

— Yigirma besh yildan buyon shu kasb ortidan kun kechirardim. Endi ishni kengaytirayman. O'zim va yana ikkita shogirdim ishlayapmiz. Rang-barang liboslar tikaymiz. Hammasiga sabab holingiz qanday deb so'rab

kelguvchi davlatning vakillari borligi, — deydi Nargiza Tursoatova.

Chindan ham, bugun “Mahalla yetiligi” aholi muammolari tez hal etilishida muhim omil bo'lmoqda. Sherobod tumanining G'o'rin-Gilambob mahallasida ham aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tgan 2024-yil mobaynida aholi qiziqishiga qarab turli yo'nalishda 3 milliard 381 million so'm kredit ajratilib, 134 fuqaroning bandligi ta'minlangan.

Misol uchun, G'yios Abdunazarov o'z qobiliyatiga yarasha ish topish uchun ko'p idoralar eshigini muntasil qogqan ozumandlardan biri. Mahalladagi hokim yordamchisi taklifi va ko'magi bilan 100 million so'm kredit evaziga avtomobillarga servis xizmatini ko'rsatish shoxobchasini ochdi. Hozir G'yios Abdunazarov dam olishga fursat topmaydi. Tadbirkor sifatida elning duosini olish qatori mahalladagi 12 kishini ishli qildi.

Mahallalarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida keng miqyosda ishlar amalga oshirilmoqda. Aniq gapki, bugungi kunda ko'chatchilik va gulchilik yaxshigina daromadli biznes.

G'o'rin-Gilambob mahallasida yashovchi Xoliqul bobo Choriyev ham 12 yildan buyon oilaviy gulchilik bilan shug'ullanib keladi. O'z tomorqasida 30 million so'm kredit evaziga 4 sotixli issiqxona qurib, gul parvarishlamoqda.

— Insonni ikki narsa tarbiyalaydi. Biri kitob bo'lsa, ikkinchisi mehnat. Xonadonimda bir yarim ming dona sara adabiyot jamlangan mo'jazgina kutubxonam bor. Gulchilik bilan shug'ullanish uchun yaxshigina issiqxona. Shukur qilaman. Shu ikkisini ortidan mahalla meni taniydi, — deydi Xoliqul bobo Choriyev.

G'o'rin-gilamboblik Sunnatullo Murodullayev hali yosh bo'lishiga qaramay, hovlisida 200 bosh yirik shoxli qoramol boqmoqda. Sunnatullo nafaqat o'zini, balki o'nlab mahalladoshini doimiy ish bilan ta'minlagan.

— Chorvachilik — zo'r soha. Maktabni bitirgandan so'ng ko'p tengdoshlarim oson pul topish yo'llarini qidirdi. Men sekin-asta shu bo'rdoqchilikni boshladim. Bu avvaliga ko'pgina yaqinlarimga ham yoqmag'an. O'zingga, yoshingga, zamonga qarab ish qilsang-chi, deganlar bo'lgan. Chorvachilik xayru baraka yog'ilgan soha. Hozir 25 ta ishchi-xodimni ish bilan ta'minlaganman, — deydi yosh tadbirkor Sunnatullo Murodullayev.

Bir haqiqat bor. Insonga aslida yo'qchilik emas, e'tibordan chetda qolmoqlik ko'proq azob beradi. Bugun odamlarning dardiga quloq tutish orqali aholi hayotini tubdan o'zgartirish imkonini beradigan davr keldi. Bu fursatni, lahzeni tutib qolish esa har kimning o'z qo'lida!

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Zamondosh yoshlar TADBIRKOR QIZ 100 TA ISH O'RNI YARATDI

Boshlanishi 1-betda

Ishlar shu tariqa asta-sekin yurisha boshladi. Mehnatga yarasha daromad ham olindi. Bu imkoniyatlar yosh tadbirkorni yangi g'oya va maqsadlar sari yetakladi, o'qish, izlanishga chorladi. Matbaachilik sohasi rivojlangan mamlakatlardan zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari, xomashyo olib keldi. Natijada qadoqlov qutilari ishlab chiqarish imkoniyati yanada kengaydi.

— Korxonamizda ishlab chiqarilayotgan keramik plitalarni qadoqlash uchun kerakli qutilarni xorijdan olib kelardik, — deydi Quvasoy shahridagi “Fergana keramik” korxonasi rahbari Xusanboy Nasriddinov. — Endi mahalliy bozordan xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ldik. Bu mahsulot sifatini



Sherozod Qoraboyev olgan suratlari.

oshirish bilan birga, tannarxini arzonlashtirish va ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berdi. Tadbirkor Nafisa Halimjonova sa'y-harakati bilan tashkil etilgan korxonada doimiy 30 ta, kasanachilik asosida 70 ta ish o'rni ochildi. Ustoz-shogird an'anasi yo'lga qo'yilgani ishchilar safini kengaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyatini bermoqda.

— Ishga kelganimga uch yil bo'ldi, — deydi “Do'stlik” mahalla fuqarolar yig'inida

yashayotgan Muxlisa Jomiyeva. — Korxona uyimizga yaqin bo'lgani uchun to'zg'or yumushlari, farzandlar ta'lim-tarbiyasiga ham ko'z-quloq bo'lib turamiz. Oylik maoshimizni vaqtda o'layapmiz. Bepul tushlik bilan ta'minlash, bayramlarda qo'shimcha rag'batlantirish yo'lga qo'yilgan.

Yosh tadbirkor izlanish va intilishdan to'xtagan yo'q. Ayni kunda “Oltiariq” kichik sanoat zonasida umumiy 500 ming AQSH dollari qiymatidagi loyiha asosida

qog'oz, bir marta ishlatiladigan sanitar idishlar to'plami, nam dastro'mol (salfetka) ishlab chiqarish yo'nalishida yangi loyihalar amalga oshirilyapti. Natijada mahsulot turi ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi ikki hissa ortadi, yuzdan ortiq ish o'rni ochildi.

— Prezidentimizning 14-fevral kuni yoshlar bilan muloqotda ayvatgan fikrlari, tadbirkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan muhim hujjatlar, yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar yangi g'oya va maqsadlar yo'lida izlanishga da'vat etdi, — deydi yosh tadbirkor. — Oltiariqda uzum ko'p yetishtiriladi. Ammo ularni qadoqlash uchun maxsus idishlar yo'q edi. Yog'och qutilarning tannaxi qimmat. Shularni hisobga olib uzumchi bog'bonlar talabiga mos, kichik qadoqlov qutilari tayyorlab beryapmiz. Bu sarxil uzumlarni saqlash, manzilga nest-nobud qilmay yetkazishda o'ziga xos qulayliklar beradi. Undan bir emas, bir necha marta foydalansa bo'ladi.

Yangi O'zbekiston hayotida faol ishtirok etayotgan oltiariqlik yosh tadbirkor ezgu tashabbuslari haqida har qancha gapirsak oz. Uning sa'y-harakati bilan yangidan yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'y ko'rsatib, aholi bandligi ta'minlanib, farovonligi oshmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Mulohaza

HAQIQATNING
HIMOYASI
XALQ UCHUNDIR

Eng avvalo, o‘tinchim shu — uyg‘onaylik,
Pok tilaklar shukuhiga chulg‘anaylik,
Haqiqatning o‘chog‘ida cho‘g‘lanaylik,
Qaysi dilda insof ustun, or ustundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

O‘zga haqi o‘zgaga hech vafo qilmas,
Kim kafildir — u bolangga jaf o qilmas.
Sir bormikan, bu dunyoda Xudo bilmas,
Xiyonat bu himoyasiz bir tutundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Olamdagi tiniq ko‘zgu — xalq ko‘zgusi,
Unda hatto ko‘ringaydir dil tuyg‘usi,
Haqdan qo‘rqib, kim xalqidan uyalgusi,
Gunoh qilmas, mayli ochdir yo yupundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Korrupsiya la‘natlangan illat erur,
Halollikning hidoyati ibrat erur,
El duosi ellararo hikmat erur,
Duo olgan qalb xotirjam, yuz gulgundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Milliy kengash — millat qadrin qalqonidir,
Kengashmoqlik — odillikning imkonidir,
Kengash tutmoq — Amir Temur farmonidir,
Har muammo ko‘ngil ichra bir tugundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Olma pishib, og‘zimizga o‘zi tushmas,
Bir qanotda axir hatto chivin uchmas,
Bugun bizga birlik kerak, boshqa ishmas,
Xalq birlashsa, Cho‘lpon aytgan —
“Xalq to‘lqindir!”
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Haromxo‘rlar ochib qo‘ygan tuynuklar bor,
El-yurt mulkin “tuya qilmoq” ularga kor,
Bilmaydilar ozor yo‘lin yoni mozor,
Buyurmasa, oltin — toshdir, pul — kukundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Yaqin tarix — o‘zbek uchun xorlik ming bad,
Ne azoblar, ne kazzoblar ko‘rdi millat.
Qotillarni urgay albat tavqi la‘nat!
U o‘tmishga boqsang hamon dil zabundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Korrupsiya — ta‘kidladi el sultoni, —
bu jamiyat tanasining saratoni.
Bo‘lsa agar odamzodning pok iymoni,
Bilsin, do‘xax oloviga shu uchundir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Qaysi elda mezbon odil — yayrar qo‘noq,
Qaysi yurtda taraqqiyot — poklik chiroq,
O‘zbek shunday: bor dunyoga ochar quchoq,
Bugun yangi O‘zbekiston bir yolgindir,
Haqiqatning himoyasi xalq uchundir!

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

Qadriyatlar o‘zgarib borayotgan, sabr bilan o‘qish susaygan bugungi ijtimoiy holatdan kelib chiqqan holda darhol mavzuni aytib qo‘ya qolaman: kitob, mutolaa va kutubxonalar haqida so‘z yuritamiz. Zotan, inson aqli, bilimi va tafakkuri yuksalishida texnologik innovatsiya qaysidir ma’noda ko‘maklashishi, ammo ushbu uchta omilning o‘rnini to‘liq bosolmasligi, matbuot, kitoblar eng ishonchli, savodni oshiruvchi va ta’sirchan vosita ekani, bu jihat asrlar davomida isbotlab kelinayotgani ayni haqiqat. Chunki paydo bo‘lish tarixi necha o‘n asrlarga borib taqalsa-da, kutubxona, mutolaa manguilikka daxldor mavzudir.

TAFAKKUR QANOT!
qayrilmasin

Bugungi shiddatli davrda kitob o‘qimay qo‘yganimiz borasidagi savolga eng ko‘p aytiladigan shaxsiy javoblardan biri — vaqt yo‘q. Bir qarashda bu oson va go‘yo uzrli sabab. Buni qayta-qayta aytaverib o‘zimiz o‘zimizni ishonitirib ham bo‘ldik. Aniqrog‘i, oqlamoqchi bo‘lamiz o‘zimizni...

Qo‘limizdan tushmaydigan telefondagi aralash-quralash, ma’nili-bema’ni videolavhalaru xabarlarini sabr-qanoat bilangina emas, soatlab yutoqib ko‘rish va o‘qishga vaqtimiz borku. Vaqt topyapmiz emas, ularning aksariyati bir chaqaga arzimasilgini, hatto zararli bo‘lishi mumkinligini bilib, sezib tursak ham bundan charchamaymiz, zerikmaymiz. Yoki yigit-qizlarning o‘zi yashayotgan hududdagi kutubxona qayerdaligini bilmasligidan ajablanmay, qaysidir matohning bozordagi minglab do‘konlardan qaysi birida sotilishini yoddan bilishiga qoyil qolamiz. Bularning bari matbuotga, kitobga va umuman, mutolaaga munosabatimizni, bugungi tafakkurimiz qadri va bahosini, oxir-oqibat qarashlarimiz qaysi manbadan oziqlanayotgani, shakllanayotganini aks ettirmayaptimi?!

Koinot kabi cheksiz
bilim bahosi

Qadimda bir mamlakat hukmdorining farzandini davolab oyoqqa turg‘izgan tabib haqidagi hikoyatni bilsangiz kerak. Bolasi shifo topganidan boshi ko‘kka yetgan shoh “Tila tilagingni, istaganingni muhayyo qilaman”, deb aytganida mashhur tabib na boylik, na mansab so‘ragan. Faqat saroy kutubxonasidan doimiy foydalanishga izn berilishini eng katta mukofot deb bilgan.

Bu voqea bugun kimgadir cho‘pchak bo‘lib tuyulishi mumkin. Aslida, ilm o‘rganishni har qanday moddiy boylikdan ustun qo‘yadiganlarni uchratish imkonsizdek bo‘lib qolgan esa-da, barcha zamonda topilgan. Ular barcha narsaning kaliti bo‘lgan ilm bilan shug‘ullanishni uy-joy, mashina yoki boshqa birov katta imtiyozga alishmaydi...

Ilm ahli orasida mashhur fransuz matematigi Anri Perelmanning uch o‘lchamli sirt haqidagi 1900-yillar boshida e‘lon qilingan o‘ta murakkab gipotezasini salkam bir asr davomida dunyoning manaman degan matematik olimlari, akademiklari yecha olmagan. Oradan yuz yil o‘tibgina boshqa bir olim — Grigoriy Perelman uni isbotlab dunyo olimlarini hayratga soldi. Ushbu jumboqli farazni asoslab bera olgan insonga oldindan va‘da qilingan bir million dollar mukofotdan voz kechgani esa bundan ham taajjublanarli. Keyinchalik bu katta mablag‘ turli xayriya ishlariga, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ekan.

Bu holat bir umr katta shahardagi kichkina uyda xasta onasi bilan kamtarona hayot kechirib kelgan bir insonning shaxs va ulkan olim bo‘lib yetishishida kitob, bilim va ma’rifatning ulkan ta’siri, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Mazkur hayotiy voqea to‘g‘risida yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshev qalamiga mansub “Puanakare” nomli badiiy-falsafiy qissa asosida badiiy film ishlanganidan ham xabarador bo‘lsangiz kerak.

Bular hammasi bevosita u yoki bu olimning iste’dodi, shaxsi haqida emas. Aynan insonlarning chuqur bilim, madaniyat, ma’rifat egasi bo‘lib



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yetishishida kitobning ahamiyati naqadar katta ekaniga hayotiy misollar, xolos.

Kitob mutolaasi madaniyati va ma’naviyati, ruhiyati, o‘lmas qadriyatlarini jamlangan kutubxonalar faoliyati bugun ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. To‘g‘ri, ayrim joylarda obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, ular soni nisbatan kamayib ketganini inkor etolmaymiz. Lekin bu fakti mutolaaga imkoniyat kam deb aslo talqin etib bo‘lmaydi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugun yurtimizda 13,1 mingta axborot-kutubxona muassasasi faoliyat yuritmoqda. Bu ro‘yxatda old qatorlarni Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari egallab turibdi. Bunday qiyoslashda mazkur hududlar maydoni va aholisi soni kabi omillarni nazardan qochimaslik lozim, albatta.

Mamlakatimizning umumiy kutubxona fondi 43,5 million nusxani tashkil etgani holda, eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida — 14,3 million va Andijon viloyatida — 6,1 million nusxada deb qayd etilgan. Buxoro va Namangan viloyatlaridagi kutubxonalar fondining har biri 3 million nusxadan oshar ekan. Tadqiqotlarda qayd etilgan yaxshi ma’lumotlardan biri shuki, kutubxonalarimizdan foydalanuvchilarning eng faol toifasi 15-24 yosh oraliq‘idagi yigit-qizlardir.

Imkoniyatlar kengaysa ham
kitobga qiziqish susaymasin

Internet, raqamli texnologiya paydo bo‘lgach, uning imkoniyatlari deyarli barcha sohaga, jumladan, kutubxonalarga ham tatbiq etila boshladi. Aholi o‘rtasida internet orqali elektron kitob o‘qigan ma’qulmi yoki asl shaklidami, buning kitobxonlar uchun qulayligi, qay biri samarali ta’sir etishi kabi jihatlar borasidagi qarashlar ancha bahs-munozaraga sabab bo‘ldi.

Kutubxonalar ahamiyati bilim olishimiz uchun necha asrdan buyon xizmat qilib kelayotgani bilangina o‘lchamaydi. Mazkur mavzuda aynan ilm egalari tomonidan sanoqsiz maqolalaru ilmiy tadqiqotlar yozilgani bejiz emas. Shu bois, masalaning bugungi holatiga bir qur nazar tashlash so‘z yuritilayotgan mavzu ahamiyatini chuqur anglashga yordam berishi shubhasiz.

Kitob, mutolaa, kutubxonalar qadri muayyan millatlar, xalqlar doirasidan chiqib, allaqachon umumbashariy qadriyatga aylangan.

Xalqaro kutubxonalar assotsiatsiyasi va muassasalari federatsiyasi ma’lumotiga ko‘ra, hozir aholisining yarmi kutubxonaga a’zo yoki doimiy foydalanuvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan mamlakatlar bor va ular bu bilan faxrlanadi. Demak,

bugun texnologiya imkoniyatlari bois, axborot va ma’lumotlarni tez topish mumkin, deyilgan bilan kutubxonalar o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Ular baribir chuqur bilim olish, tafakkurni charxlash borasida asosiy, ishonchli manba bo‘lib qolmoqda. Zero, kitoblar, kutubxonalar ijtimoiy tarmoqlar kabi kiberbulling (raqamli texnologiya orqali qo‘rqitish, haqoratlash, firibgarlik qilish, inson shaxsiyatini haqoratlash), dezinformatsiya bilan shug‘ullanmaydi. Aksincha muhim ijtimoiy institut bo‘lib, davlat islohotlari orqali ilgari surilayotgan demokratik g‘oyalarni amalga oshirish, fan va ta’lim, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiyot, madaniyat rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Afsuski, kutubxona zerikarli, hech qiziq joyi yo‘q, deguvchilar ham topiladi. Bu holat bunday noto‘g‘ri tasavvurga ega odamlarning kitob mutolaasiga qiziqishi sust emas, balki ularda kitob va kutubxonaning yoshlar ma’naviyati, kelajagiga qay darajada ijobiy ta’sir ko‘rsata olishi to‘g‘risida to‘g‘ri tushuncha yo‘q, degan xulosa beradi.

Maqolani yozish jarayonida Chilonzor tumanida joylashgan Toshkent shahri “Bilim” axborot-kutubxona markaziga bordik. Ertalab bo‘lishiga qaramay, o‘quv zali va boshqa tegishli bo‘limlarda tasavvurimdan ancha ziyod o‘quvchi bor edi. Kutubxonalar ish vaqti soat 9:00 dan (ba’zi joylarda 8:30 dan) yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda kerakli kitobni olib, muk tushib o‘qishadi xolos, degan tasavvurlar allaqachon eskirib bo‘lgan ekan. Bugun ularning imkoniyati butunlay ilgarilab ketganiga amin bo‘lmay iloj yo‘q. Tegishli ma’lumotlarni olish uchungina emas, kasbini, ta’bir joiz bo‘lsa, hayotini bevosita shu maskanga bog‘lagan xodimlar bilan uchrashib mavzu borasidagi fikr-mulohazalarini tingladik.

— Kutubxonalarning asosiy vazifasi — keng jamoatchilik foydalanishi uchun turli yo‘nalishdagi bosma mahsulotlarni to‘plash va saqlash, targ‘ib qilishdan iborat, — deydi Toshkent shahri “Bilim” axborot-kutubxona markazi direktori o‘rinbosari Sevara Xudoyberdiyeva. — 173 ming kitob fondiga ega kutubxonamizning 13 mingdan ortiq a’zosi bor va bu zo‘r emas. Umuman, kutubxonalar afzalligi haqida so‘z yuritsak, bu yerdagi kitoblar faqat sohalarga ko‘ra emas, balki kitobxonlarning yoshi va kasbi, qiziqishlariga ko‘ra ham saralanib, tizimlashtirilgan.

Ziyo maskanlarining asosiy ustuvor jihatlaridan biri — bu yerdagi xotirjam va sokin muhit. Shu bois, ularni boshqa mashg‘ulot chalg‘itmaydi, hech narsa xalal bermaydi. Aksincha ziyoga intilgan ezuq fikrlarni uyg‘unlashtiradi. Kutubxonamiz bugun kitobxonlarimizning ikkinchi uyi, desam mubolag‘aga yo‘lmang. Faoliyatimda guvohi bo‘lib ko‘rib turibmanki, kutubxonalar bugun ham jamiyatda o‘z o‘rniga ega va ularga talab od emas. Axborot, badiiy, ilmiy adabiyotlarga ehtiyoj barcha yoshdagi

insonlarda mavjud. To‘g‘ri, bugun aksariyat yoshlarni ko‘ngilochar markazlarda uchratish mumkin. Lekin faoliyatimdan kelib chiqib baralla ayta olamanki, kutubxonamiz a’zolari, umuman, kitobxonlar safi kengayib boryapti. Qolaversa, kutubxonalar zamon talablaridan kelib chiqib, barcha turdagi resurslar bilan ta’minlangani o‘quvchilar safini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Jumladan, barcha turdagi adabiyotlar, turli fan va sohalarga oid ilmiy ishlanmalar, elektron kitob, audio kitob, davriy va xorijiy nashrlar, xorijiy ma’lumotlar bazasi, Wi-Fi zonalar mavjudligi yoshlarning vaqtini unumli o‘tkazishga keng imkoniyat yaratmoqda.

Kitobxonlar qiziqishini o‘rganish maqsadida so‘rovnomalar o‘tkaziladi. Ularga qanday adabiyotlar kerakligi, axborot-kutubxona xizmatlarining qaysi turlari ma’qulligi kabi savollar bilan murojaat qilinadi.

Bugungi kutubxonalarda juda keng va katta ko‘lamdagi kitoblar, davriy nashrlar, elektron resurslarni ham topish mumkin. Hatto ko‘plab kutubxonalar ilmiy kutubxona va jurnallar saytlariga bog‘langan. Bu, o‘z navbatida, kerakli ma’lumotlarni tez va oson topa olish, turli sohalarga oid dolzarb tadqiqotlar bilan tanishish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu joy kitobxonlikka oid foydali ma’ruzalar va boshqa tadbirlar o‘tkazilayotgani bilan qiziqarli.

Ishonch va qarashlar ko‘zgusi

Muayyan ma’noda ta’lim vazifasini ham bajaradigan kutubxonalar aholining ilm olish, dunyoni anglash borasidagi qarashlarini belgilab beruvchi universal vositalardan biri bo‘lib kelgan. Universallik esa ijtimoiy qatamlar belgilari va kriteriyalari, jamiyatdagi o‘rni, aholining qarashlari borasida sotsiologiyaning asosiy tushunchalarini belgilab beradi, deydi mutaxassislar.

Mamlakatimizda kitob mahsulotlarini chop etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va targ‘ib etish, kitobxonlik tadbirlari, bayramlarini o‘tkazish yuzasidan qator me’yoriy hujjatlar, qarorlar qabul qilinganki, aholining kitobxonlik madaniyatini oshirish doim davlatimiz siyosatining ustuvor masalalaridan biri bo‘lib kelganini ifoda etadi.

Masalan, “Kitobsevar millat” g‘oyasi asosida yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirish umummilliy harakatga aylandi. Xususan, yaqinda davlatimiz rahbarining mamlakatimiz yoshlari bilan muloqotida yoshlar bilan ishlash samaradorligini kuchaytirish chora-tadbirlari muhokama qilindi, faol yoshlarning takliflari tinglandi. Bu, avvalo, kelajagimizni bunoyd etishda yoshlarga katta ishonch namunasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Prezidentimiz yurtimiz yoshlari timsolida yangi O‘zbekistonning bugungi va ertangi bunyodkorlarini ko‘rayotganini alohida ta’kidlab, bunday dedi: “Buyuk shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, yoshlik — bu qalbnig oltin sozi. Bunga qo‘shimcha qilib, yoshlar — xalqimizning. Vatanimizning oltin fondi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Aholimizning 60 foizini aynan yoshlar tashkil etishi ham bu fikrni tasdiqlaydi. Bugungi kunda biz mard va matonatli xalqimizga, serg‘ayrat yoshlarimizga ishonganimiz uchun o‘z oldimizga katta-katta maqsadlar qo‘ymoqdami, marrani baland olmoqdami.

Kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiylar qayerdan paydo bo‘ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi?

Men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Albatta, bu ezuq g‘oyalarni sizlar — bugungi yangi O‘zbekiston yoshlari amalga oshirasizlar”.

Ko‘zlangan ezuq maqsadga erishish yo‘lidagi muntazam harakat ana shunday yuksak ishonchni oqlaydi. Bilim olish, ma’naviyat va ma’rifatga intilish esa mutolaaga bo‘lgan e’tiqodimizni mustahkamlayverishi shubhasiz.

Rustam BOYTO‘RA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.
37346 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Topshirildi — 22:10